



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



INTI
International
University & Colleges

**HERIOT
WATT**
UNIVERSITY
UK | DUBAI | MALAYSIA

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O‘ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEXNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDAGI
O‘RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6
UO‘K 556.182:551.5(08)
BBK 26.222+26.236
«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo‘jaligidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San‘at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abduraufovna - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).
© Mualliflar
Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

bo'lishadi. Bu esa ularning atrof-muhitni hissiy anglashlariga yordam beradi. Loyiha asosidagi ta'lim: O'quvchilar ekologik loyihalarni ishlab chiqish, tadqiqot ishlarida ishtirok etish orqali jamoaviy ish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Muammoli vaziyatlar va simulatsiyalar: Real hayotiy ekologik muammolarni modellash orqali shaxslar bu masalalarga yechim topish jarayonida faol qatnashadi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar: Raqamli resurslar, interaktiv dasturlar va onlayn seminarlar ekologik ta'limni kengaytirish va unga zamonaviy ko'rinish berish uchun samarali vositadir. Kelajak avlodlari uchun ekologik tarbiya va ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Global iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va biologik xilmaxillikning kamayishi kabi global muammolar, insoniyatning kelajagi uchun xavf tug'diradi. Shu sababli, ta'lim tizimida ekologik bilimlarning keng qo'llanilishi, yosh avlodning atrof-muhitga nisbatan ongli yondashuvi zarur. Shaxslarning ekologik axloqi, jamiyatda barqaror rivojlanishga erishishda, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishida asosiy o'rin egallaydi.

Xulosa. Ekologik ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini bu sohadagi asosiy tamoyil va metodlarni tahlil qilish orqali kelajakda ta'lim tizimida ushbu tamoyillarni chuqurlashtirish va kengaytirish, insoniyatning ijtimoiy va ekologik farovonligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari ekologik ta'lim va tarbiya masalasiga jiddiy va keng qamrovli yondashuv, hamda undagi tamoyillarni amalga oshirish orqali nafaqat o'quvchilar, balki butun jamiyat ekologik muammolarga moslashuvchan va yechimga intiluvchi holga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattorov Z.M. *Ekologiya*. – T.: Sano-standart, 2018. – 362 b. 34.
2. Sattorov Z.M. *Qurilish ekologiyasi*. – T.: Sano-standart, 2017. – 364 b.
3. Yormatova D. *Sanoat ekologiyasi*. – T.: 2007. – 256 b. 41.
4. A.E. Ergashev. *Hozirgi zamonning ekologik muammolari va tabiat muhofazasi*. Toshkent 2012 y. 403 b.
5. Shadimetov Y. SH. *Экология. Учебник для вузов*. 2016 г. 416 с.
9. 6. Shodimetov Y. SH. *Ijtimoiy ekologiya. Darslik. Oliy o'quv yurtlari uchun*. (To'ldirilgan va qayta ishlangan.) 2016 y. 556 b.
10. 7. Egamberdiyev R., Raximova T., Allaberdiyev R. *Ekologiya*. Toshkent. Universitet nashriyoti. 2019 y. 254 b.

MILLIY KOLORITNING TASHUVCHILARIDAN BIRI BO'LGAN LAQABLAR YOKI TAXALLUSLARNING TARJIMASI VA TAHLILI

Jumayeva Shahlo Shokirovna

“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o'qituvchisi, Buxoro Davlat Texnika Universiteti

Annotasiya: Milliy koloritning tashuvchilaridan yana biri laqablar yoki taxalluslar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, laqablar ham milliy xarakterni ifodalovchi vosita bo'lib, qahramonning o'z davrida va muhitida qanday daraja va maqomga ega ekanini bildirib turadi. Maqolada bizning asosiy tahlil obyekti bo'lgan O'zbekning “Navoiy” asarida uchraydigan laqablar yoki taxalluslarning tarjimasi va tahlilini o'zbek va ingliz tillarida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: laqablar yoki taxalluslar, milliy xarakter, milliy til, xorijiy til, milliy o'ziga xoslik

Аннотация: Не будет преувеличением сказать, что прозвища являются еще одним носителем национального колорита. Потому что прозвища также являются средством выражения национального характера и указывают на уровень и статус героя в его время и среду. В статье мы рассмотрим перевод и анализ прозвищ или псевдонимов на узбекском и английском языках, который является основным объектом нашего анализа, в произведении Ойбека «Навои».

Ключевые слова: псевдоним, прозвища, национальный характер, национальный язык, иностранный язык, национальная самобытность.

Abstract: It would not be an exaggeration to say that nicknames are another carrier of national color. Because nicknames are also a means of expressing national character and indicate the level and status of the hero in his time and environment. In the article we will look at the

translation and analysis of nicknames or pseudonyms in Uzbek and English, which is the main object of our analysis, in Oybek's work "Navoi".

Key words: *pseudonym, nicknames, national character, national language, foreign language, national identity.*

Kirish. Har bir milliy tilning boyishi, sayqallanishi asosan o'sha tilni tashkil etuvchi ichki resurslar hisobiga sodir bo'ladi. Har bir milliy til o'zining lug'at tarkibi va gramatik qurilishiga ega bo'lib, asosan o'zining ichki taraqqiyot qonun qoidalari asosida rivojlanadi, boyiydi, to'xtovsiz ravishda kamolotga intiladi. Tilning lug'at tarkibi uning asosiy qurilish materiali hisoblanib, tilning rivojlanishi, boyishi shu lug'at tarkibining rivojlanishiga, boyishi va kengayishiga bog'liqdir. Lug'at tarkibining kengayishi va rivojlanishida esa frazeologik birliklar (maqollar, hikmatli so'zlar, iboralar, matallar) ning o'rni beqiyosdir. Bizning asosiy tahlil obyekti bo'lgan Oybekning "Navoiy" asarida uchraydigan maqollar, hikmatli so'zlar, iboralar, matallar bilan birga laqablar yoki taxalluslarning tarjimai va tahlilini o'zbek va ingliz tillarida ko'rib chiqamiz.

Milliy koloritning tashuvchilaridan yana biri laqablar yoki taxalluslar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, laqablar ham milliy xarakterni ifodalovchi vosita bo'lib, qahramonning o'z davrida va muhitida qanday daraja va maqomga ega ekanini bildirib turadi. Zero, har bir inson qiyofasining shakllanishi u mansub bo'lgan ijtimoiy muhitga bog'liq. Adib qahramonini tasvirlar ekan uning atrofidagi muhitini va qahramonning shu muhitga bolgan munosabatini, va aksincha atrofda gilarning qahramonga bo'lgan munosabatini ham albatta ifodalashi zarur. Bu asarning haqqoniyliigi, tabiiyligini va asar qahramonining to'qima obraz bo'lib qolishidan asraydi:

- *Hormang, mavlono Darvesh!*

- *Assalom, marhamat qiling, taqdir, - ishdan qo'l uzmay dedi Darvesh hoji*

- *Kayflari nechik?*

- *Alhamdulillah, soyayi davlatingizda hech narsadan tashvishimiz yo'q.*

Ushbu misolda bir insonga nisbatan ikki xil murojaatni qo'llanilganini ko'ramiz. Alisher Navoiy Darveshga *mavlono* deb murojaat etgan. Bu so'zning lug'aviy ma'nolaridan biri *musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni, yuksak martabali amaldorlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan faxriy so'z* ekanini e'tirof etsak, "zamon bog'bonlarining ustodi"- Darveshga ayni shu so'z bilan murojaat etib uning jamiyatdagi maqomini ifodalagan. Asardagi milliy koloritning bu ko'rinishini izohlasak, ulug' shoir davrat arbobi o'z maqomining ulug'ligiga qaramasdan, o'zidan yosh jihatdan ulug' va ustoz maqomidagi odamga yuksak hurmatini ifodalagan. Ikkinchi murojaat *hoji* so'zi adib tomonidan qahramonga nisbatan qo'llangan bo'lib, u lug'atda Haj qilib, Ka'bani ziyorat qilib kelgan kishining faxriy unvoni, laqabi kabi izohlangan. Bunday insonlar jamiyatda cheksiz hurmat ko'rgan kishilar hisoblangan. Chunki, o'sha davr muhitidan kelib chiqib har kim ham hoji maqomiga ega bo'lolmagan. Demak, Darveshning jamiyatdagi yana bir maqomi uning hojiligi bo'lib, yozuvchi bir dialog orqali bir insonning ham ustoz ham hoji maqomidagi ulug'vor shaxsigini bildirgan.

Yoki, *Yozuv san'atida Sultonaning iste'dodi va uning ustodi Azhar Hirotiy haqida shoir qiziq ma'lumot berdi* misolida Azhar Hirotiy ismi keltirilgan. Bunda Hirotiy uning taxallusi ekani anglashiladi. Bu sharq mamlakatlariga xos milliy kolorit vositasi bo'lib, bu taxalluslar kishining nasl-nasabi, tug'ilgan joyi haqida ma'lumot yetkazgan va ayniqsa o'zbeklarda keng qo'llanilgan: Al Buxoriy, At Termiziy, Az-Zamaxshariy, Chustiy va hokazo.

Milliy kiyimlar tasvirida ham milliy koloritni ko'rishimiz mumkin: *Xadichabegim, har vatdagi kabi, tantana bilan kirib keldi. Uning egnida oltin gullar ishlangan to'q qizil xitoyi shoyidan juda uzun va keng ko'ylak bo'lib, etaklarini bir necha qizlar barmoq uchlari bilan tutib kelar edilar. Boshida ko'kimtir shogidan sallacha – dakana deyarli bir xilda kiyingan yuzlarcha go'zal kaniz qizlar va ro'dapo qullar.* Xadichabegim Husayn Boyqaroning rafiqasi, saroy xonimi, malika ekanini uning boshqalardan ajralgan holda kiyinishidan ham anglash mumkindir. Uning kiyimi uchun o'sha davrning eng qimmat matosi xitoy shoyisi, boshidagi shoyi sallacha tillalar bilan bezatilganini ifodalash orqali adib bu ayolning saroydagi mavqeining balangligini, nasl-nasabu ulug'ligi va boy xonadon vakili ekanini bildirgan va bu bilan o'sha davr ruhuni kitobxonga yetkazgan. Xonzodalar va oddiy kanizlar bir- biri bilan ijtimoiy jihatdan farqlanishi, oddiy kanizlar har doim aszodalar xizmatida va izmida bo'lishganini, ularning nimagadir ega bo'lish u yoqda tursin, his qilishga, havas qilishga haddi yo'qligini tasvirlagan. ular hatto qullar bilan bir xilda kiyingan va Xadichabegimning va podshoh xonadonidagi boshqa ayollarning xizmatini qilishgan.

Xulosa. Ma'naviyat, eng avvalo millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. U ijtimoiy - madaniy filtr vazifasini bajaradi va milliy an'analarga yot, milliylikka putur yetkazuvchi, millatning axloqiy, estetik, falsafiy qarashlarga, imon-e'tiqodiga, adolat va haqiqat to'g'risidagi tasavvurlarga mos kelmaydigan narsalarni qabul qilmaslikka, aksincha, ularni siqib chiqarishga harakat qiladi hamda milliy rivojlanish uchun zarur bo'lgan o'zga xalqlarning yutuqlarini, tajribasini o'zlashtirishga intiladi.

Tarjimon nafaqat xorij tilini, balki o'z tilining grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasini ham mukammal o'rganishi lozim bo'ladi. Aslyatdagi milliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirish masalasi tarjimashunoslikda artroflicha o'rganilganilgan soha. Milliy o'ziga xoslik deganda ma'lum millatga xos, uning turmush sharoitiga, dunyoqarashiga, madaniyatiga, kiyim-kechagiga, uy-ro'zgor buyumlariga oid tushunchalarni ifodalovchi realiyalar, ya'ni bir xalqqa mansub tushunchalar ko'zda tutiladi. Bunday o'ziga xoslik asar personajining xulq-atvorida, o'y-xayollarida, gapiradigan gaplarida, maqollarda, hazil-huzullarida, qolaversa, asar muallifining voqea hodisalariga munosabati bayonida ham o'z aksini topadi. Shu sababli o'ziga xoslikni tarjimada to'laqonli aks ettirish asarning badiiy, estetik, semantik, stilistik jihatlarini ikkinchi bir tilda to'laqonli qayta yaratish vazifalarini oldinga suradi. Bu tarjimondan tarjima asari yaratilgan tilni chuqur bilishlikni, shu xalqqa mansub bo'lgan milliy o'ziga xosliklarni, dunyoqarashlarni, asarning badiiy estetik ta'sirini ta'minlovchi barcha jihatlarini chuqur anglashni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Musaev Kudrat. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.T.:Uzbekistan Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2005.-4 b.
2. O'zbek izohli lugati, "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent – 2021
3. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi, «Tafakkur Bo'stoni» Toshkent - 2012
4. Ibrohim G'afurov bilan intervyu. Badiiy tarjima nusxa ko'chirish emas // O'zbekistonda xorijiy tillar. -2015. -№ 3 (7). -B. 31– 37.
5. Juliane House-Translation as Communication across Languages and Cultures-Routledge (2015) (1) <https://www.academia.edu/38151758/pdf>
6. Ойбек. Навоий. Роман. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 25
7. Oybek. Navoiy. Novel. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2016. – P. 20

XORIJIY TIL DARSLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA

Jumayeva Shahlo Shokirovna

"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi, Buxoro Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida ekologik ta'lim va tarbiyaning muhim o'rin egallashi, hamda ularni shakllantirishda zaruriy bilimlar keltirib o'tilgan. Unda ekologik ta'lim tarbiya nimalarni o'z ichiga olishi, qanday masaslalar borligi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda ekologik ta'lim tarbiyaning vazilalariga ham to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Kalit so'zlar: talabalar, ekologik ta'lim va tarbiyani shakllantirish, tabiat muxofazasi, ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik xavfsizlik.

Kirish. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan har bir sohada chuququr islohotlar o'tkazilmoqda. Ana shunday sohalardan bir bo'lgan ekologik sohada ham muhim qonun, qaror, farmonlar ishlab chiqilib amalga joriy etilmoqda. Albatta bu qonunlarning bosh tamoyili Konstitutsiyamiz hisoblanadi. Konstitutsiyada O'zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo'lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalarini belgilab beradi.

Shu jumaladan ekologik ta'lim va ekologik toza muhit borasida ham ko'plab ishlar qilinmoqda ular amaliyotda ham o'zining natijasini bermiqda. Jumladan bu sohaga hukumat darajasida e'tibor berilmiqda. 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tadigan umumxalq referendumida